



**“DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA YOSHLAR
ISHTIROKIGA DOIR TENDENSIYALAR”**

Ibragimova Gulnora Xamza qizi
*Toshkent shahar, Yunusobod tumani
Yurtobod MFY yoshlari yetakchisi*

Annotatsiya: Hozirgi davrda, bir muncha rivojlangan va yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra har bir millat jahon hamjamiyatida munosib o'rinn egallaydi, katta va uzoq muddatli maqsadlarni qo'yishga va ularga erishishga qodir. Ushbu maqola xalqimizning farovon hayoti, go'zal hayot tarzi va umuman olganda, har bitta sohada yuksak yutuqlarga erishish maqsadida davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish, unda horijiy tajribani o'rganish, milliy amaliyotda qo'llash haqida kerakli va foydali ma'lumotlarni ifoda etadi.

Kalit so'zlar: davlat va jamoat boshqaruvi tizimi, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi, hamkorlik, xalqaro tajriba, modernizatsiya, demokratlashtirish.

Hozirda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida yoshlari davlat hokimiyatini shakllantiruvchi, uning faoliyatida ishtirok etuvchi, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kuchga aylandi. Davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida yoshlarning roli sezilarli darajada oshib bormoqda. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining markazida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini tubdan takomillashtirish va zamonaviylashtirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni kuchli ijtimoiy himoya qilish masalalari turadi. Davlatimiz rahbaritashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida muhim ahamiyatga molik bo'lgan hujjatlardir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikamizda olib borilayotgan yoshlarga doir siyosat o'zining izchilligi bilan alohida ajralib turadi.

Jumladan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, jamiyatimiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini liberallashtirish vazifasi jamiyat va davlat



hayotida yoshlarning roliga yangicha yondashuvlarni qaror toptirish va rivojlantirish bugungi kunning bahs mavzusiga aylandi.

Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardanoq O'zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib, 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishiva uning 2016 yil 14 sentyabrda yangi tahrirda tasdiqlanishi mamlakatimizda yoshlar siyosatiga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikni yangicha bosqichga ko'tarishi bilan muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 5 iyulda «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni va 2017 yil 18 iyulda «O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu meyoriy hujjatlarda yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yosh olimlarning jahon ilmiy maydonida raqobatbardoshliligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarning intellektual mulk ob'ektlarini respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlariga joriy etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O'zbekistondagi siyosiy partiyalar huzurida yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi "Yoshlar qanoti" tashkil etilgan. Bularidan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yoshlarning ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, ularda jamiyatimiz taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan turli xil g'oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarimizni e'zozlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarni faol ishtirok etishga chaqirish, barcha bo'g'indanlardagi partiya organlariga saylanish, hokimiyat vakillik organlariga nomzodini ko'rsatish,



partiya yig'ilishlarida muhokama kilinayotgan masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, takliflar kiritish, dasturiy maqsadlarni hayotga tatbiq etish jarayonlarida bevosita yoshlarning faol ishtirok etishini ta'minlashga intilish, yoshlar orasida yaratuvchanlik g'oyalarini ilgari surishi hamda ularni hayotga tatbiq etish yuzasidan amaliy taklif va mulohazalar ishlab chiqish kabilardan iborat

Umuman olganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan sog'lom va barkamol etib voyaga yetkazishga hamda yoshlarni yuksak ma'naviyatli va yuqori malakali kadrlar qilib tayyorlashga, shuningdek Vatanga xurmat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan qisqa fursat davomida yoshlar siyosatiga doir amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar va ularning ijobiy natijasi bilan har qancha fahrlansak arziydi.

Davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarish va islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida mustahkam bilimga ega, O'zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan yosh va tashabbuskor kadrlarni taqozo etadi. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Davlat harakat strategiyasining harakatlantiruvchi kuchi davlat va uning organlari hisoblanadi. Islohotlarning kafolati va kafolati - bu davlatning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqeа. U boshqaruv mahorati bilan uzoq muddatli maqsadlarni rejalshtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqaradi, aholini safarbar qiladi va mavjud resurslardan oqilona va adolatli foydalanadi.



Binobarin, davlat va jamoat boshqaruvi tizimini takomillashtirmsdan mamlakat hayotini modernizatsiya qilish mumkin emas.

Modernizatsiya mamlakatni rivojlanishiga olib keladi, menejmentning xizmat qilish muddatini yangi sifat va talablar darajasiga ko'taradi. Ushbu jarayonlar bevosita mintaqaviy rivojlanish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlariga mustaqil qaror qabul qilishga imkon beradigan qonunchilik bazasini shakllantirishni talab qiladi. 2019-yil boshida, O'zbekistonda Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida Birlashgan Arab Amirligi bilan qo'shma dasturi tashabbusi bo'yicha say harakatlar boshlandi. Vazirliklar, idoralar, iqtisodiy organlar va ta'lim muassasalari vakillaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi Birlashgan Arab Amirliklariga "Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish" hukumatlararo dasturi ishchi guruhining ikkinchi yig'ilishida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi.

Prezidentimiz parlament qarorlarini qabul qilish va qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyat tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy boshqaruv usullaridan keng foydalanish, malakali mutaxassislarni jalg qilish zarur deb takidladi. Asosan davlat xizmati, siyosatni ishlab chiqish, mahalliy hokimiyatlarning vakolat va majburiyatlarini qayta belgilash va ularning mustaqilligini yanada mustahkamlash borasida ko'rsatmalar berdi.

So'nggi yillarda konstitutsiyaviy qonunchilikka kiritilgan yangi institutlar davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishda, hukumat tuzilmalari (parlament, prezident, hukumat) o'rtasidagi munosabatlarning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuni davlat hokimiyati tizimini yanada demokratlashtirish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi. Asosiy qonunning 98-moddasiga islohotlarning oldingi bosqichida kiritilgan o'zgartishlar



hokimiyat sub'ektlari o'rtasida vakolatlarni munosib taqsimlanishiga erishishda muhim rol o'yndi.

Tashrifning asosiy maqsadi Birlashgan Arab Amirliklarining davlat boshqaruvi tizimini yaratish va muqobil kontseptsiyani O'zbekistonga yanada joriy etish bo'yicha tajribasini o'rganish, ishchi guruhlarning ikkinchi yig'ilishini o'tkazish, 2019-yilgi "yo'l" ni muhokama qilishdir. 2020-yil turli yo'nalishlarda "Xarita" ni ishlab chiqish va tasdiqlash. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BAAGa mart oyida qilgan tashrifidan so'ng, O'zbekiston va BAA o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Tashrif davomida tomonlar "Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish" qo'shma dasturi tashabbusi to'g'risida kelishib oldilar va may oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan seminar dasturning mantiqiy davomidir. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyevning ta'kidlashicha, hukumatni modernizatsiya qilish mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, xalqaro tajriba uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi Aziz Abduhakimov, adliya vaziri Ruslanbek Davletov, investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinosi Shuhrat Vafoev va Turizmni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi direktori Sh. Al-Gergavi uchrashuv davomidasog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot va boshqa sohalarda amaliy natijalarga erishish uchun jamoaviy ish olib borish muhimligini ta'kidlashdi. O'zbekiston delegatsiyasining BAAGa tashrifi hukumat boshqaruvni takomillashtirishda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga sodiqligini namoyish etadi. Birlashgan Arab Amirliklari vazirining so'zlariga ko'ra, hukumat faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlash BAANing kelajakni xavfsiz ta'minlash yo'lidagi harakatlarining muhim qismidir. Birlashgan Arab Amirliklari yangi biznes modellarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribasidan mammunligini bildirdi. Hozirgi globallashuv davrda,



davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish uchun davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi katta ahamiyatga ega. Asosan davlat xizmatlari ko'rsatish masalasi yetakchi masalalardan biri bo'lib, bu tizimning maqsadi aholi manfaatlariga xizmat qilishdir. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya va uning ro'yobi xalqimizga juda ma'qul keldi. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirishda "Elektron hukumat" tizimi muhim o'rinn tutmoqda. O'z navbatida, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining izchillik bilan takomillashtirilishi va modernizatsiya qilinishi aholimizning hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash hamda biznesni yanada rivojlantirish imkonini bermoqda. Bu davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davlat xizmatlarini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyatga ega. Qonunga muvofiq, davlat organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, jumladan, statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziya, ruxsatnoma, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek, davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish kabilar belgilangan. Tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, internet orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek, kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish masalalari ham ko'zda tutilgan.



O'zbek xalqi xonadonida qiz farzand dunyoga kelsa, uni o'zgacha mammuniyat bilan kutib oladi, ona qizim deb ko'klarga ko'taradi, fikrimning isboti tariqasida mammuniyat bilan ta'kidlashim joizki, o'zlarining a'lo xulqi, tashabbuskorligi, muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodlarini nomoyon qilib kelayotgan qizlar "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanib kelmoqdalar.

Eng quvonarli jihat shundaki, Prezidentimizning 2018-yil 2-yanvardagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlar tog'risidagi" farmoniga binoan iqtidorli qizlarni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlashni 22 yoshdan 30 yoshga uzaytirilgani nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Chunki mazkur yosh doirasida qizlarimiz manashu mukofotga munosib sovrindor bo'ladigan darajada ulkan yutuqlarni zabit etmoqlari muqarrar. Yoshlar o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, ularni o'zini-o'zi band qilishga rag'batlantirish, yoshlar dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha yangi, "Temir daftari", ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyobi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari hayotga tatbiq etildi. 2021-yil mobaynida "Yoshlar daftari" ga kiritilgan yigit-qizning muammolarini hal etish uchun milliardlab mablag' yo'naltirildi. "Temir daftari" dagi oilalar farzandlari bo'lgan 2 mingdan ziyod talabalarning shartnoma pullari to'lab berildi. "Ma'naviyatli xalqni yengib bo'lmaydi".- Bu ibora zamirida ulkan ma'no mujassam. Yoshlarimizning ma'naviyatli, marifatli bo'lib kamol topishlari uchun, ularning dunyo qarashi va fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovi va "Zakovat"



intelektual o'yinlari tashkil etilgani kitobxon yoshlar shahri kengayib borishiga ulkan zamin yaratdi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini “Litsenziya” kompleks axborot tizimiga integratsiya qilish, litsenziyani elektron shaklda berish tartibini joriy qilish, davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi idoralar bilan hamkorlikda davlat xizmatlarini olish uchuntaqdim qilinadigan arizalarni avtomatlashtirilgan tarzda to'ldirish funksiyalarini takomillashtirish tavsiya etildi. Prezidentimizning “Ahолига давлат хизматлари ко’рсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чоратадбirlari to'g'risida”ги Farmoni va “О’zbekiston Respubli kasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”ги qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. O'tgan vaqt mobaynida yuqoridagi farmon bilan tasdiqlangan ro'yxatda ko'rsatilgan 2018- yilning aprel oyigacha joriy qilinishi lozim bo'lgan 13 ta davlat xizmatlari bo'yicha turli byurokratik to'siqlarni bekor qilishni, talab etiladigan hujjat va ko'rsatiladigan muddatlarni soddallashtirish hamda qisqartirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlar ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan 17 ta ma'muriy reglament tasdiqlandi. Davlat xizmatlari ko'rsatuvchi vazirlik va boshqa tashkilotlarga kiritiladigan xizmatlar haqida ma'lumot olinib, vazirlik va idoralarning reyesti shakllantirildi. Adliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining qarori bilan “Davlat xizmatlari yagona reyestri” qabul qilindi.

Bugungi kunda markazlar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni, eksperimental xizmatlar bilan qo'shib hisoblaganda, 100 taga yetdi. Joriy yilning 6 oyida esa, markazlar orqali yuridik va jismoniy shaxslarga 1 million 200 mingdan ortiq



xizmatlari ko'rsatildi. Ularning aksariyati, ya'ni 417 mingdan ortig'i elektron raqamli imzo sertifikatlarini berish, 282 mingdan ortig'i bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish va 146 mingdan ortig'i tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishni tashkil qiladi. Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida kontaktsiz shakllardan foydalanishni faollashtirish maqsadida

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi talqini — “Yagona portal” ishga tushirildi. Portal orqali yuzdan ortiq elektron xizmat ko'rsatilmoqda. Ushbu xizmatlardan 850 mingdan ziyod ariza kelib tushgan hamda aholining ortiqcha vaqtin, xarajatlari va sarsongarchiliklari oldi olingan. Xususan, 2018-yilda Davlat xizmatlari markazlari va Yagona portal orqali 30 dan ortiq avtomatlashtirilgan davlat xizmatlari ishga tushirildi.

Mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda. Bu, albatta, aholining huquq va manfaatlari ta'minlanishiga, investitsiya jozibadorligiga hamda ishchanlik muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, fikrimning yakuniy qismida, shuni ta'kidlash joizki, O'zbek xalqi azaldan mehnatkash, vatanparvar, iymonli, ilmli va dono xalq hisoblangan. Tarixdan ma'lumki, buyuk bobolarimiz hukmdor bo'lib, o'z davrida davlatni boshqaruv tizimini mustaxkam va tartibli tarzda boshqarishgan. Xususan, ikkinchi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'plab say-harakatlari, oliy maqsadlar sari vatanimizning taraqqiyoti uchun tun-u kun tinmasdan mehnat qilmoqdalar. Bunday harakatlarning natijasi albatta davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirishda ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanimanadabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent; 2014 yil.
2. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. -T.; 2010,
3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlari - mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi, 2016 yil 8-dekabr bet.
4. Shavkat Mirziyoyev. Biz jasur va oljanob xalqimiz bilan erkin va obod, demokratik O'zbekiston davlatini ko'ramiz! 2016 yil 15 dekabr
5. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
6. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.